

21-dars

Darsning mavzusi: Soʻz va soʻz tarkibi. (89-92-mashqlar)

Darsning taʼlimiy maqsadi: soʻz, soʻz tarkibi, asosdosh soʻzlar hosil qilish haqida maʼlumot berish, asosdan yangi soʻz hosil qiluvchi qoʻshimchalarni va soʻzlarni oʻzgartiruvchi qoʻshimchalarni oʻrgatish, qoʻshimchalarni ajrata olish haqidagi koʻnikmalarni oʻstirish; oʻqilgan matn mazmunini va oʻzgalar fikrini anglab, ifodalay olish, ogʻzaki nutqda soʻz va gaplar ohangiga rioya qila olish, soʻz yasovchi va soʻz oʻzgartiruvchi qoʻshimchalarni farqlaydi, gapning ohangiga koʻra tinish belgilarini (nuqta, soʻroq, undov belgilari) ishlata olish.

Darsning tarbiyaviy maqsadi: oʻquvchilarni tabiatga gʻamxoʻrlik ruhida tarbiyalash; oʻzining xato va kamchiliklarini toʻgʻri tushunib, oʻzini nazorat qila olish va xatolarini tuzatishga harakat qilish, kattalarga, kichiklarga va oʻrtoqlariga yordam berish; oʻzidan kattalarga, oʻrtoqlariga va oʻzidan kichiklarga yordam berish.

Darsning rivojlantiruvchi maqsadi: ogʻzaki va yozma nutqini rivojlantirish; talaffuz meʼyorlariga, boʻgʻin koʻchirish qoidasiga rioya qila olish, mavzuga oid soʻzlarni ogʻzaki va yozma nutqda, oʻzlashtirilgan leksik birliklarni matnda qoʻllay olish.

Darsning turi: oʻquvchilarning bilim, koʻnikma va malakalarini rivojlantiruvchi.

Darsning metodi: suhbat, mustaqil ish metodi, “**Boshqotirma**” Darsning taʼlimiy maqsadi oʻyini, “Venn diagrammasi” metodi.

Darsning jihozi: mavzuga oid rasmlar, soʻzlar yozilgan kartochkalar, multimedia ilovalari.

Darsning borishi

I. Tashkiliy qism.

- salomlashish;
- davomat;
- maʼnaviyat daqiqasi.

II. Oʻtilgan mavzuni mustahkamlash.

Husnixat daqiqasi:

Ilm istasang, takror qil.

Uyga berilgan 88-mashq ogʻzaki oʻqitish orqali tekshiriladi. Har bir ogʻzaki javob bergan oʻquvchining javobi birgalikda izohlab, mustahkamlab boriladi va ragʻbatlantiriladi.

III. Yangi mavzu bayoni:

89-mashq. Matn oʻqitiladi. Matn nima haqida ekani soʻraladi. Chumoli haqida oʻquvchilardan maʼlumot olinadi.

Matndagi hid soʻziga eʼtibor qaratiladi. Ularga soʻroq beriladi.

Asos va asosdosh soʻzlar haqida maʼlumot beriladi. Matndan qaysi qoʻshimchalar asosdosh soʻzlar hosil qilgani aniqlanadi va tushuntiriladi.

Matndan soʻzlarni bir-biriga bogʻlaydigan qoʻshimchalar aniqlanadi. Tushuntirib beriladi.

1-topshiriq.

“Hasharotlar” matnni oʻqib, ajratib koʻrsatilgan soʻzlarni soʻz yasovchi va soʻzlarni oʻzaro bogʻlovchi qoʻshimchalarni olgan soʻzlarni ikki ustunga ajratib yozdiriladi.

Soʻz yasovchi	Soʻzlarni oʻzaro bogʻlovchi
Foydali	Yuzida
Zararli	Ulardan
Kasallik	Yerni
Tozalik	Undan
	Dehqonlarga
	joyimizni
	Oziq-ovqatlarni
	suvda

Dam olish daqiqasi:

Olma

Men sizlarning

Olmangiz,

Xomligimda

Olmangiz.


Nortojiga

Oʻxshab soʻng,

Voy, qornim, deb

Qolmangiz!

90-mashq. Berilgan qoʻshimchalar yordamida soʻzlar hosil qilinadi va shu soʻzlar ishtirokida matn tuzib, yoziladi.



Gulla, gulli, gulchi, guldor, gulsiz.

O'quvchilar shu so'zlar ishtirokida o'zlari mustaqil matn tuzib , daftarga yozadilar.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.

91-mashq. Berilgan so'zlar yordamida yangi gaplar tuzib yozing

1. Halol, xalqimiz, mehnatni, qadrlaydi.
2. Tikdi, yangi, tikuvchi, ko'ylak, atlas.
3. Muruvvatli, do'stlaringga, shafqatli, bo'lg'in.
4. *Shirin, shirin, so'z, boldan.*

Xalqimiz halol mehnatni qadrlaydi.

Tikuvchi atlasdan yangi ko'ylak tikdi.

Shafqatli do'stlaringga muruvvatli bo'lg'in.

Shirin so'z boldan shirin.

92-mashq. Berilgan so'zlarga *-li, -siz, -la, -xon, -dor, -chi* qo'shimchalaridan mosini qo'yib, yangi so'zlar hosil qiling va yozing.

Hosil, rang, tayyor, navbat, tuz, kitob, quvvat, zarar, maslahat, aql, kuy.

Hosilsiz, hosildor, rangli, rangsiz, tayyorla, navbatsiz, tuzli, tuzsiz, kitobxon, quvvatsiz, zararli, zararsiz, maslahatsiz, maslahatchi, aqlli, aqlsiz, kuysiz, kuychi.

O'quvchilar shu so'zlar ishtirokida ikkita gap tuziladi.

Ilm insonlarning madori, hayoti, rahbari najotidir.


Ilm o'rganmak, olim bo'lmak uchun maktabga kirmak, muallimdan ta'lim olmak lozim.

Abdulla Avloniy

“Venn diagramasi”

Berilgan soʻzlardan mosini guruhlarda “Venn diagrammasi” ga solib, diagramma asosidagi soʻzlar haqida oʻquvchilar tushuncha beradilar.

Gulla, mehirsiz, gapdon, aqli, gulni, mehrli, gapga, bilimdon, kitobni, kitobsiz.



Asos: gul

Soʻz yasovchi qoʻshimcha: -la

Soʻzlarni bogʻlaydigan qoʻshimcha: -ni

V. Darsga yakun yasash va baholash

Oʻquvchilarning darsdagi ishtiroki va ijodkorligi, faolligi, topshiriqlarni bajarish darajasiga koʻra oʻqituvchi tomonidan baholab boriladi. Dars yakunida umumiy baholar eʼlon qilinadi va faol, bilimdon oʻquvchilar ragʻbatlantiriladi.

VI. Uyga vazifa berish.

93-mashq. Maqollarni oʻqing. Ularning maʼnosini tushuntiring. Zid maʼnoli soʻzlarni koʻchiring.